

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TARBIYAGA OID MA'NAVIY QARASHLAR**Nurullayeva Durdona Davron qizi****Qarshiboyeva Baxtigul Akbar qizi****Razzoqov Husniddin Rustambek o'gli****Ollomurodova Feruza G'ovsddinovna****Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti talabalari****<https://doi.org/10.5281/zenodo.8348112>**

ANNOTATSIYA. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o'quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma'naviy barkamol tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagogika, axloq, nafs, maktab.

KIRISH XIX asrning oxiri - XX asr boshida Turkiston madaniyati qator talantli olim, sayyoh, shoir, pedagog, jurnalistlarni yetishtirib chiqardi, ular xalqimizning umumiy madaniy rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda Ahmad Donish, Berdaq, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O'tar kabi olim, shoirlar o'z davrining muhim masalalarini ko'tarib chiqdilar va xalqni ilm-fan, marifatni egallashga undadilar. XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy pedagogikasining mashhur vakillaridan biri - ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniydir. Uning madaniyatimiz tarixidagi o'rni haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta'kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy - badiiy ijodi. Uning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlarida yangi bosqichga ko'tarilgan ma'rifatchilikning xususiyatlarini belgilashda muhim manbalardandir.

Abdulla Avloniy asarining "Yaxshi xulqlar" bobida fatonat, diyonat, islomiyat, nazorat, g'ayrat, riyozat, qanoat shijoat, ilm, sabri hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmok, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rijo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat, afv haqida atroflicha fikr yuritadi, o'z qarashlarini dalillash uchun Qur'oni karim oyatlaridan, hadisi sharifdan namunalar, ulug' mutafakkirlar Aflotun, Arastu, Suqrot, Buqrot, ibn Sino, Mavlono Rumsiy, Shayx Sa'diy, Mirzo Bedil fikrlarini keltiradi. Jadidchilik harakati namoyandalari qarbiy Yevropa ma'rifatparvarlari kabi ilm-ma'rifatni, zamonaviy taraqqiyotni bayroq qilib ko'tardilar, taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotgan mutaassib ulamolarga, qadimchilarga qarash keskin kurash olib bordilar. Shuni unutmazlik kerakki, o'zbek ma'rifatparvarlarining Yevropa ma'rifatparvarlaridan ajralib turadigan asosiy jihati shundaki, ularning faoliyati zaminida millatni mustamlakachilik zulmidan ozod etish, istiqloq g'oyasi yotar edi. Shuning uchun ham jadid mutafakkirlari oq va qizil imperiyaga birday ma'qul emas edilar.

Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy-pedagogik, ta'limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga iqror bo'lamizki, uning asarlarida ifoda etilgan ta'limiy, tarbiyaviy g'oyaviy, falsafiy pedagogik hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda

qoldiradi. Avloniy asarlarining tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatan- parvarlik g'oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoq joiz.

Farzandlar ham har xil bo'ladi. Onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida yolg'iz tashlab ketuvchi farzandlar ham topiladi. Vatanning ham faqat fusunkor tabiatini, bog'-rog'larini hush ko'radigan, lekin tashvish va g'amlarini o'ylamaydigan farzandlari yo'q emas. Vatanni: u qanday bo'lmasin, sevisht kerak. «Biz, - deydi Avloniy, - Turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issig' cho'larini, eskimo'lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz «Qishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtingda cho'pon bo'l, demishlar» [3; 255-bet.]. Ulug' allomamiz Abdulla Avloniy oilada bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma'qul degan barcha mutafakkirlarning fikriga qo'shilgan holda insonning voyaga yetishida ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos ekan, bu jarayonni azaliy an'analarga tayangan holda ta'lim-tarbiyani amalga oshirish lozim deb hisoblaydi. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid oxirgi yozgan asarlarida ilgari surgan ta'limiytarbiyaviy g'oyalari, ko'plab nazariy mulohazalari ushbu asarlari qoshidan joy olgan bo'lib, ularni mufassal tadbiiq etish milliy ma'naviyatimizni xolis anglab yetishda bugungi avlodlar uchun benazir manba va asos bo'lib xizmat etadi.

Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk ijtimoiy ishdir, u shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq. Avloniy so'zlari bilan aytganda —tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir||. Abdulla Avloniy axloq bergan tar'ifi: Insonlarni yaxshilikg'a chavquruguvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurigan kitobni axloq deyilur. Avloniy tarbiyani keng ma'noda tushungan, tarbiyani birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. «Sog' tanda, sog'lom aql» degan hikmatning bejiz emasligini yaxshi biladi. U bolaning sog'lig'i haqida qayg'uradi. Uning ta'kidlashicha, badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Avloniyning vijdon haqidagi mulohazalari ham diqqatga sazovor. «Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgon hissiyot, ya'ni sezuv tuymakdan iborat ma'naviy quvvatni aytilur. Biz har vaqt af'olu va harakatimizning yaxshi va yomonligini, foyda va zararligini onjak vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o'z kamchiliklarini o'lchab, bilmaq barobar boshqalarning ham fa'ol harakatini sezur. Agar ishlagan ishi sharoit, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur... Vijdon yaxshi ishlarning manbai o'ldig'indin vijdon sohiblari har bir ishni beg'araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo'lur... Al-hosil, vijdon har kimning af'ol va harakatini ko'rsatadugon musaffo bir o'ynadurki, bu ko'zguga chin nazar qilg'on kishi o'z aybu kamchiliklarini tuzatmak harakatida bo'lub, boshqalarning ayb va qusurlarini ohtarmoqg'a vaqti bo'lmas...» [4]. Avloniy tarbiyaning aslini ko'rsatadigan mezon – bu vijdon deydi.

XULOSA. Har bir millatning o'z ma'naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish yuksak vazifalardan

biridir. Ma'naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini, ma'naviy qiyofasini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o'рни beqiyosdir. O'zbek adabiyotida bunday asarlar juda ko'p. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinch muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" kabi darsliklari ham xarakterli bo'lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g'oyaviy to'liqligi, ta'lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir.

References:

1. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. "Xalq so'zi", 2017- yil 4-avgust .
2. Shavkat Mirziyoyev. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi," Xalq so'zi", 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.
3. Abdulla Avloniy.. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 bet.